

## MAQSUD SHAYXZODANING IJODIY YO'LI VA HAMDA ISH FAOLIYATI.

*Toshkent davlat transport universiteti*

*AYM fakulteti YMAQ-13 (IQT)*

**Salimova Barno Djamalovna**

**Olimjonova Nozima Foziljon qizi**

U 1925 yildan boshlab Ozarbayjon Maorif xalq komissarligi yo'llanmasi bilan Dog'istonning Darband shahrida muallimlik bilan shug'ullandi. Shayxzoda Dog'istonda kechgan qisqa hayoti davomida ham muallim, ham shoir, ham jurnalist, ham tanqidchi sifatida namoyon bo'ldi. Shayxzoda 1928 yilda Toshkentga kelib, turli gazeta va jurnallar muharririylarida, 1935-1938 yillarda esa Fanlar Qo'mitasi qoshidagi Til va adabiyot institutida ilmiy xodim, 1938 yildan to umrining so'ngiga qadar Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika institutining "O'zbek mumtoz adabiyoti" kafedrasida dotsent vazifasida xizmat qilib, malakali kadrlar yetishtirdi.

Shayxzoda 1967 yil 19 fevralb vafot etdi. U Toshkentning Farobiy qabristonida dafn etilgan. Ozarbayjon tuprog'ida tug'ilgan falakning gardishi bilan o'zbek tuprog'iga kelib qolib, zavq -shavq bilan ijod qilgan, zamonaviy o'zbek adabiy tili va adabiyotiga salmoqli hissa qo'shgan bu ulug' insonning muborak nomi hech qachon xalq nomidan o'chmaydi. Zero uning o'z yozganidek:

*Umrlar bo'ladiki,*

*Tirik odam o'likdir,*

*Umrlar bo'ladiki,*

*O'lgan odam tirikdir.*

## Ijodiy yo‘li

Shoirning adabiy faoliyati 1929 yildan boshlanib, “O‘n she’r” (1932), “Undoshlarim” (1933), “Uchinchi kitob” (1934), “Jumhuriyat” (1935) to‘plamlarining nashr etilishi adabiyotga o‘ziga xos ovozli shoir kirib kelayotganidan darak berdi.

Uning “Kurash nechun”, “Jang va qo‘shiq”, “Kapitan Gastello”, “Ko‘ngil deydiki...” she’riy to‘plamlari, “Jaloliddin Manguberdi” tarixiy dramasi kabi asarlari urush yillarida yozilgan bo‘lib, jangchilarning qaxramonligi, vatanga muhabbat, front ortidagi insonlarning sadoqatli mehnati tasvirlangan.

“O‘n besh yilning daftari”, “Olqishlarim”, “Zamon torlari”, “Shu’la”, “Chorak asr devoni” kabi she’riy to‘plamarida, urushdan keyingi yillarda qatag‘on bo‘lgan shoir, totuvlik uchun kurash, Vatanga fidokorlikni kuyladi.

1958 yili adibning “Toshkentnoma” lirik dostoni yaratildi. Ushbu doston qadimiylarini va ayni chog‘da zamonaviy Toshkent shahriga bag‘ishlangan. Shayxzoda nafaqat lirik shoir, balki, iste’dodli dramaturg hamdir. 1960 yilda yozgan “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasida buyuk o‘zbek olimi, munajjimi va ma’rifatparvar hukmdori obrazini yaratdi.

Shayxzoda Pushkining “Mis chavandoz”, Lermontovning “Kavkaz asiri”, Mayakovskiyning “Juda soz” dostonlari va ko‘plab she’rlarini, Shekspirning “Hamlet”, “Romeo va Julietta” tragediyalari va sonetlarini, Nozim Xikmatning she’rlarini, ozarbayjon shoirlari asarlarini va o‘zbek tiliga o‘girdi.

Shayxzodaning o‘zbek adabiyoti tarixi, o‘zbek xalq og‘zaki ijodiyoti, xususan, Alisher Navoiy ijodini tadqiq etish borasida yaratgan ilmiy ishlari ham tahsinga sazovordir. U filologiya fanlari nomzodi, dotsent ham edi. Shayxzoda asarlari dunyoning bir necha tillariga puxta o‘girilgan.

## Adabiyot

### Maqsud Shayxzoda kitoblari:

Maqsud Shayxzoda, MIRZA ULUKBEK (tarixiy fofja). Naum Grebnev tomonidan o‘zbek tilidan tarjima qilingan. nomidagi Badiiy adabiyot nashriyoti G. Gulyama, Toshkent 1967 yil.

Shayxzoda M. Shu'la: She'r va ertaklar. [Vatan og'zi aytildi] / Vatan so'zi aytildi; Ed. I. Muslim. – T.: O‘zdavnashr, 1950, -50 b., tarqatilgan; 21 sm - o'zbek tilida. 30 000 buyurtma.

Maqsud Shayxzoda. Simlar ustida qaldirg'ochlar: she'rlar. - M.: Sovet yozuvchisi, 1967. - 138 b.

Maqsud Shayxzoda haqidagi kitoblar:

Zokirov M. Maqsud Shayxzoda: adabiy-tankiy insho. — Toshkent, 1969. (o‘zbek)

Shomansur Y. Shayxzoda - bunyodkor shoir. — Toshkent, 1972. (o‘zbek)

Murabbiy-ijodkor: Maqsud Shayxzoda tavalludining 100 yilligiga: metod.-bibliografiya. nafaqa / Nat. nomidagi O‘zbekiston kutubxonasi Alisher Navoiy; komp. U. Teshaboyeva; ed. X.Mamatraimova; Javob. ed. A. Qlichboev. — Toshkent: Nat. nomidagi O‘zbekiston kutubxonasi Alisher Navoiy, 2008. - 32 b. (o'zbek)